

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.
ILMIY
XABARLAR**

1995 yildan nashr etiladi
Yilda 6 marta chiqadi

1-2023

**НАУЧНЫЙ
ВЕСТНИК.
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года
Выходит 6 раз в год

Sh.I.Nurmuradova

Texnika oliv o'quv yurtlarida rus tilini o'qitish metodikasi va uni tashkil etilishi	439
R.N.Nazimov	
Pedagogik texnologiyalar va xorijiy tajribalarning xorij ta'lomidagi ahamiyati va uni O'zbekistonda amalga oshirish asoslari.....	445
D.A.Raximjonova	
Ingliz tilshunosligida kompyuter dasturiy ta'minot atamalarining tuzilish xususiyatlari.	448
N.Sh.Mamadov	
Amir Temur faoliyatining yoshlarni ma'naviy kamol toptirishdagi roli	453
N.D.Djalilova	
Talabalar kommunikativ kompetentsiyani takomillashtirish videomateriallari	456
A.U.G'ofurov	
Sport turizmini rivojlantirishning tashkiliy va ijtimoiy-pedagogik asoslari	461
O.T.Karimov, F.N.Nurqulov, A.T.Djalilov	
Organik kislota tuzlari bilan modifikatsiyalangan polietilenni termik xususiyatlarini tadqiq etish	467
R.N.Muminova	
Madaniy o'simliklarni etishtirishda xlorelladan foydalanish	470
A.E.Axtyamov	
Reklama matnlarining pragmalingistik tahlilida tekstuallikning yetti mezoni	474
N.V.Nosirov	
Bo'lajak texnologiya fani o'qituvchilarining metodik kompetentligini rivojlantirish jarayonini takomillashtirishning pedagogik shart-sharoitlari	477
F.Yuldashev	
Abu Nasr Forobiys falsafasida aqliy bilish panteizmi	481
Sh.Sh.Qosimova, M.M.Darmanov	
In vitro texnologiyasi asosida maxalliy uzum navlarini ko'paytirish.	486
S.H.Po'latov	
Abu Homid al-G'azzolij va Ibn al-Arabiy diniy-falsafiy qarashlarida tasavvuf ta'llimotining rivojlanishi	490
H.A.Sulaymonov	
Xorijiy tillar grammatikasini o'qitishning umumnazariy masalalari xususida	494
N.T.Mirzaxolov	
Sun'iy intellekt – fan-texnika taraqqiyotining yuksak bosqichi (ijtimoiy-falsafiy tahlil)	498
G'.B.Samatov, S.Mo'minjonov	
Ikki atomli gazlarda tebranma-ilgarilanma energiya almashinish ehtimolligini hisoblash	502
R.Batirov	
Chaqiriqqacha bo'lgan yoshlarda harbiy-amaliy jismoniy tayyorgarlik konseptual xususiyatlarini rivojlantirishning samarali shakl, metod va vositalari	508
G.Kozlova	
Kompetensiyaga asoslangan yondashuvni, ta'lim standartlari va tamoyillarini amalga oshirish zarurati	512
V.Isaqov, X.Qoraboyev	
<i>Indigofera tinctoria</i> o'simligi va tuproqdagi makroelementlarning o'zgarishi.	515
R.R.Sayfullaeva, N.I.G'aybullayeva	
Salomatlik konseptining lingvomadaniy talqini.....	521
A.G'ofurov	
Bo'lajak jismoniy tarbiya fani o'qituvchilarining sport turizmiga tayyorlashning o'ziga xos xususiyatlari	526
N.R.Zakirova	
Ta'lilda yangi texnologiyalarning ustunliklari.....	532
I.Sharofutdinov	
Ta'limdi axborotlashtirish sharoitida bo'lajak pedagoglarning akmeologik kompetentligini rivojlantirish ijtimoiy zarurat sifatida	535

PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALAR VA XORIJY TAJRIBALARING XORIJ TA'LIMIDAGI AHAMIYATI VA UNI O'ZBEKISTONDA AMALGA OSHIRISH ASOSLARI

ЗНАЧЕНИЕ ПЕДАГОГИЧЕСКИХ ТЕХНОЛОГИЙ И ЗАРУБЕЖНОГО ОПЫТА В ЗАРУБЕЖНОМ ОБРАЗОВАНИИ И ПРИНЦИПЫ ЕГО ВНЕДРЕНИЯ В УЗБЕКИСТАНЕ

THE SIGNIFICANCE OF PEDAGOGICAL TECHNOLOGIES AND FOREIGN EXPERIENCES IN FOREIGN EDUCATION AND THE PRINCIPLES OF ITS IMPLEMENTATION IN UZBEKISTAN

Nazimov Raxmatilla Normuradovich¹

¹Nazimov Raxmatilla Normuradovich

– O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari, Kichik mutaxassislar tayyorlash Markazi, Qurollanish va otish sikli katta o'qituvchisi, Qurolli Kuchlar xizmatchisi

Annotatsiya

Ushbu maqolada quyidagi maqsadlar ko'rib chiqiladi: raqobatbardosh kadrlar tayyorlash bo'yicha xorijy tajribani tahlil qilish, Respublika oliv o'quv yurtlarida raqobatbardosh mutaxassislarni tayyorlashdagi muammolarni aniqlash va ularning yechimini izlash, shuningdek, kadrlar tayyorlashda amalga oshirilishi lozim bo'lgan vazifalarni belgilash.

Аннотация

В данной статье рассматриваются следующие цели: анализ зарубежного опыта подготовки конкурентоспособных кадров, выявление проблем подготовки конкурентоспособных специалистов в высших учебных заведениях Республики и поиск их решения, а также определение задач, решаемых при подготовке кадров.

Abstract

This article considers the following goals: analysis of foreign experience in training competitive personnel, identification of problems in training competitive specialists in higher educational institutions of the Republic and search for their solutions, as well as determination of tasks to be performed in personnel training.

Kalit so'zlar: ta'lim, pedagogik texnologiya, mutaxassis, kadr, metod.

Ключевые слова: образование, педагогическая технология, специалист, кадры, метод.

Key words: education, pedagogical technology, specialist, personnel, method.

KIRISH

Ma'lumki, jahoning deyarli barcha oliv ta'lim muassasalarida oliv ta'lim sifati, ya'ni sifatli raqobatbardosh kadrlar tayyorlash hamma vaqt ham dolzarb masala bo'lib kelgan va shunday bo'lib qolaveradi. Raqobatbardosh va sifatli kadrlar tayyorlash strategiyasiga mamlakatimizda hukumat darajasida e'tibor berilib, amalga oshirilmoqda. Bu masala bo'yicha "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish Harakatlar strategiyasi"da, ta'lim va o'qitish sifatini baholashning xalqaro standartlarini joriy etish asosida oliv ta'lim muassasalari faoliyatining sifati hamda samaradorligini oshirish" zarurligi qayd etilgan.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

Ta'liddagi muvvafaqiyat, aksariyat dadil harakat qiluvchilar tarafida bo'ladi. Dadil harakat, shijoat tufaylidir. Shijoatni esa insonga, o'zbek milliy pedagogikasining mumtoz namoyondasi Abdulla Avloniy takidlaganlaridek maktab ilm- ma'rifat baxsh eta oladi.

Qadimdan bizda bilim olish qadrlangan. Bilimdon kishilar esa el- yurt ardog'ida bo'lganlar. Shuning uchun ham bilim olish va olingan bilimni mamlakatimiz xizmati yo'lida xizmat qildirish oliv insoniylik burchimizdir. Bu vazifalarni muvvafaqiyatl hal etishni muhim shartlaridan biri chet el maktabi va pedagogikasi tajribalari o'rganishdir.

Xalqaro tajribalarini sinchkovlik va qunt bilan o'rganish orqali ta'lim tarbiyada qotib qolgan, o'z dolzarbligini yo'qotib borayotgan ish shakllari, uslublaridan xalos bo'lish bilan birga, uni munosib tarzda yangilashda qo'shimcha boy manbalarga ega bo'lamiz.

Davlatimiz rahbari mamlakatda kadrlar muammosi mavjudligini barcha sohalarga islohotlar sur'atiga mos zamonaviy mutaxassislar kerakligini aytgan edi.

Shu maqsadda butun ta'lim tizimi takomillashtirilmoqda. Maktabgacha ta'lim

rivojlantirilayotganini muktab saboqlariga puxta zamin bo'lmoxda. Umumiy o'rta ta'lif sifati ilg'or xalqaro tajriba va zamon talablari asosida yuksaltirilmoqda.

Prezident muktablari, buyuk allomalarimiz nomi bilan ataladigan ixtisoslashtirilgan muktablari, ijod muktablari, Temurbeklar muktablari kabi zamonaviy va innovatsion ta'lif maskanlari tashkil etildi. Ularda xalqaro tajribalar yo'lga qo'yilganligi kelajakda yetuk kadrlar yetishib chiqishidan dalolat beradi. 2019-yil 26-noyabrda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Zamonaviy muktab" larni tashkil etish chora tadbirlari to'g'risida "gi qaror qabul qilindi. Qarorga muvofiq

2021-yilgacha muktablarning kamida 3 foizi, 2025-yilgacha 20 foizi 2030-yilga qadar esa 50 foizini "zamonaviy muktab" larga aylantirishning asosiy parametrlari belgilandi.

NATIJALAR VA MUHOKAMA

Bugun hukumatimizning shu masaladagi talabi doirasidan kelib chiqqan holda Respublikamizdagi barcha oliy ta'lif muassasalari o'z oldilariga eng dolzarb masalalardan biri qilib oliy ta'lif tizimining me'yoriy-huquqiy hujjatlaridan foydalangan holda va kadrlar tayyorlashning xorijiy tajribalarini tahlil qilish natijasida Respublikamiz OTMlarda raqobatbardosh kadrlar tayyorlash tizimidagi mavjud muammolarni aniqlash va ularni yechish yo'llarini ochiq-oydin belgilab olishga bag'ishlangan bo'lishi lozim deb hisoblaymiz. Ushbu maqsadda avvalambor quyidagilar paysalga solmasdan tezda amalga oshirish kerak bo'ladigan eng asosiy vazifalardir:

- Raqobatbardosh kadrlarni tayyorlashga oid xorij tajribalarini o'rganish, tahlil etish va milliy sharoitimizda ulardan ijodiy foydalanish yo'llarini ishlab chiqish;

- Respublikamiz OTMlarda raqobatbardosh kadrlar tayyorlash tizimidagi mavjud muammolarni aniqlab, ularni hal etish orqali oliy ta'lif tizimini takomillashtirishning yo'nalishlarini belgilab berish;

- Kadrlar tayyorlash Milliy modelining asosiy tarkibiy qismlari bo'lmish shaxs→davlat va jamiyat→uzluksiz ta'lif o'rtafiga uzviyigini yanada kuchaytirish yo'llarini aniqlab olish;

- Oliy ta'lif tizimidagi har bir ishtirokchi-rahbar, pedagog, xodim, talaba va boshqalarning ta'lif tizimini takomillashtirish uchun faqatgina tizim chegarasida va atrofida islohotlarni o'tkazish yetarli emasligini tushunib yetishi;

- Ta'lif tizimida bugungacha amal qilib kelayotgan ko'plab me'yoriy-huquqiy hujjatlarni saralash, tizimlashtirish va ta'sirchanligini oshirish maqsadida ushbu hujjatlarni bitta joyga jamlab, **Ta'lif Kodeksini** ishlab chiqish;

- OTM professor-o'qituvchilari va xodimlari mehnatiga haq to'lashni yanada ko'paytirish, shu jumladan ilmiy darajali va unvonli mutaxassislar bilan oddiy mutaxassislar o'rtafiga oylik maosh tafovutini keskin ko'tarish va boshqalar.

- Bundan tashqari Respublikamiz oliy ta'limalarida islohotlar o'tkazilishiga sabab bo'lgan quyidagi omillarni ham inobatga olinishi lozim bo'ladi [2]:

- akademik muassasalarining tez sur'atda o'zgarib borayotgan bozor iqtisodiga moslasha olmayotganligi;

- oliy ta'lif olishga talablarning ortib borishi;

- kerakli mutaxassislarga talabning yetarli o'rganilmaganligi yoki umuman yetishmayotganligi;

- nodavlat va kommersiya tartibidagi oliy ta'lif muassasalar sonining ortib borishi;

- abituriyntlarga qo'yilayotgan talabning osonlashib borishi va buning natijasida oliy ta'lif jamiyatning har bir tabaqasi uchun ochiq bo'lishi;

- talabalar va professor o'qituvchilar o'rtafiga mobililikning oshishi va h.k. Respublikamizda ham xuddi xorijiy mamlakatlardagidek oliy ta'lif tizimini qo'llab-quvvatlash borasida eng asosiy ishlar sifatida avvalambor kadrlarni va moddiy resurslarni jarayonga unumli jalb etish, ilmiy-tadqiqot ishlarini olib borishni keng yo'lga qo'yish va natijalarini o'quv jarayoniga chinakamiga keng tatbiq etib, ularni moddiy rag'batlantirib borish, oliy ta'lif muassasalariga qabul qilish va ularni attestatsiyadan o'tkazishni takomillashtirib borish va optimallashtirish, o'qituvchilarning kasbiy kompetensiyasiga jiddiy e'tibor qaratib, o'shangaga mos va loyiq holda mehnatiga haq to'lash va nihoyat ish beruvchilar bilan muntazam aloqa o'rnatishni kuchaytirish kabilarni diqqat markazimizda tutmog'imiz kerak. Xorijiy va Yevropa davlatlarida oliy o'quv yurtlariga qabul va o'qishga kirishning asosiy talablarining tahlili shuni ko'rsatmoqdaki, barcha yevropa davlatlarida oliy

ILMIY AXBOROT

ta'lism olish uchun maktabda tugallangan 12 yoki 13 yillik tahlil olingan bo'lishi shart. Bu borada o'zimizda ham o'z vaqtida 11 yillik o'rta ta'lism tizimiga qaytganimiz ayni muddao bo'ldi [3].

Qisqacha xulosa qilib aytadigan bo'lsak, xorijiy mamlakatlarda amalga oshirilayotgan ijtimoiy, siyosiy va iqtisodiy sohalardagi islohotlar tizimidagi yangilanishlar bir xillashuvga, bir-birini to'ldirib, kirishib jipslashuviga olib kelishi muqarrardir. Lekin shu bilan birga Yevropadagi har bir mamlakat o'z xususiyati, tarixi, madaniyati va o'z an'analariga ega ekanligi, ular asrlar davomida shakllanib kelgan ta'lism tizimini bir necha yillar ichida bekor qilib, hali sinalmagan va notanish ta'lism tizimiga o'tishning murakkab bo'lishi aynan bizda ham tabiiy holat bo'lishligini ta'kidlab o'tishimiz zarur deb o'yaymiz. Xo'sh, xorij tajribalarini o'rgandik, ularni tahlil qilib, o'zimizga xulosalar ham chiqarib oldik deylik, ammo muhtaram Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyev 2018-yil 6-aprel kuni Respublika akademiklari va ilmiy-tadqiqot institutlari olimlari hamda yosh ilmiy tadqiqotchi olimlar bilan o'tkazgan uchrashuv-yig'ilishida takror- takror ta'kidlaganlaridek, raqobatbardosh kadrlarni tayyorlashga faqatgina tajribalarni o'rganib, ularni tatbiq etish bilangina erishib bo'lmaydi, ya'ni har qanday tadqiqot yoki o'zga tilni o'rganish jarayoni ham zamonaviy yangi pedagogik texnologiyalarni o'rganilgan xorij tajribalari bilan boyitib, uyg'unlashtirgan holda olib borilsagina ko'zlangan maqsadga samarali erishiladi, ya'ni hozirgi zamonda ilg'or mamlakatlarda sinovdan o'tgan yangi va zamonaviy pedagogik texnologiyalardan "klaster" (bitta obyekt yoki so'z tanlab olinadi va o'shangta taalluqli tasavvurlar yig'iladi), "idrok xaritasi" (karta razuma), (aniq bir tushunchani aniqlashtirib, uni rivojlantirib borilishiga imkon beradi), "blits" (tezkor javob berish), "keys stadi" (vaziyatlar orqali ta'lism berishga asoslangan usul), "Nima uchun?" nomli sxema (gapirishga dialog shaklida kirishish), "multimedia dasturlari" dan foydalangan holda darsni tashkil etish (bu usul interfaol usul bo'lib, u ayniqsa yuqori kurs talabalarida tinglab tushunish va gapirish malakalarini oshiradigan usuldir) va ko'plab shunga o'xshash yoki boshqacha usullardan keng va ijodiy holda foydalanishimiz, an'anaviy eski usul va metodlardan voz kechib, yuqorida ta'kidlab o'tilgan yangi pedagogik texnologiyalardan unumli foydalanim borilsa maqsadga muvofiq bo'ladi deb hisoblaymiz.

XULOSA

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi ta'lism sifatini nazorat qilish ta'lism inspeksiyasi tashkil qilinganiga endigina 2 yildan oshdi. O'tgan davr mobaynida inspeksiyaga yuklatilgan vazifalar bajarish bo'yicha ilg'or xorijiy tajribalarni o'rganish va ularni yurtimiz ta'lism sifatini baholash ishlarini joriy etish bo'yicha maqsadli ishlar olib borilmoqda. Biz ayni damda chet el pedagogikasidagi ilg'or jihatlarini o'zashtirish, yangi- yangi o'quv predmetlarini ta'lism tarkibiga kiritish bilan jahondagi eng ilg'or pedagogikalarinig biriga aylantirishni eng dolzarb vazifa deb hisoblaymiz. Ilg'or xorijiy tajribalarni amaliyatga joriy etish ta'liming progressiv o'sishini ta'minlashi shubhasiz.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Aliboyev, Sobir. "Zamonaviy ta'limga raqamli tizimlarni qo'llash: Filologiya va pedagogika sohasida zamonaviy tendensiyalar va rivojlanish omillari." Arxiv Nauchnix Publikatsiy JSPI (2020). (Aliboyev, Sabir. "Application of digital systems in modern education: modern trends and development factors in the field of philology and pedagogy." Archive Nauchnix Publication JSPI (2020).)
2. Do'stmurodova O, Marufov E. "Ta'limga yangi pedagogik texnologiyalardan foydalanish". Ilmiy maqolalar to'plami. Samarcand, 2011. (Dostmurodova O, Marufov E. "Use of new pedagogical technologies in education". Collection of scientific articles. Samarkand, 2011.)
3. Ko'chiboev A, Begmatov A. "Darslarda pedagogik muloqotni tashkil qilishning o'ziga xos xususiyatlari". Ilmiy maqolalar to'plami. Samarcand, 2012 (Kochiboev A, Begmatov A. "Peculiarities of organization of pedagogical communication in lessons". Collection of scientific articles. Samarkand, 2012)
4. G.Anorqulkova, A. Karimov. Xorijiy mamlakatlar ta'lism tizimining o'ziga xos yo'nalishi uslub va tahlili. Xalq ta'limi ilmiy metodik jurnali. 2017-yil. 3-son. (G. Anorkulkova, A. Karimov. Method and analysis of the unique direction of the education system of foreign countries. Scientific methodical journal of public education. 2017 year. Number 3.)
5. A.Nasirov. Fransiyada talim sifati qanday nazorat qilinadi? -, , Boshlang'ich ta'lim" jurnali. 2019- yil. 12- son. (A. Nasirov. How is training quality controlled in France? "Primary Education" magazine. 2019 year. Number 12.)
6. R.Ilashova. Amerika maktablarida.- , , Boshlang'ich ta'lim" jurnali. 2019- yil. 3-son. (R. Ilashova. In American schools. - , , "Elementary Education" magazine. 2019 year. No. 3.)
7. www.natlib.uz